



"SMARTBAZAR" ELEKTRON XIZMAT KO'RSATISH BANK
TAQDIM ETADIGAN XIZMATLARDAN FOYDALANISH
BO'YICHA MIJOZLAR UCHUN

Toshkent shahri

OMMAVIY OFERTASI

Mazkur ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda - shartnoma) Bank taqdim etayotgan xizmatlarni olish bo'yicha shartnoma tuzish layoqati va zarur vakolatga ega bo'lgan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga yo'naltirilgan rasmiy taklifi xisoblanadi hamda elektron mobil ilova orqali amalga oshiriladigan xizmat ko'rsatishga oid barcha talablarni o'z ichiga oladi. Oferta shartnomasining taraflari bo'lib "Mijoz", "Sotuvchi" va "Bank" hisoblanadi hamda ular birgalikda "Taraflar" deb nomlanadi.

Mijoz – Bankning Elektron moliyaviy xizmat ko'rsatish maydonchasi yoki mobil ilova orqali "Sotuvchi" taqdim etayotgan mahsulotlarni sotib olish uchun Bank taqdim etadigan xizmatlarni oluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

Sotuvchi – Bankning Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi yoki mobil ilovasiga mahsulotlarni taqdim etuvchi xo'jalik yurituvchi subyekt.

Bank – Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi yoki mobil ilova orqali Mijozga o'z xizmatlarini taqdim etuvchi bank (SMARTBANK).

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi yoki mobil ilovada joylashtirilgan moliyaviy xizmatlar mijozlar uchun bank xizmati hisoblanadi hamda Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi yoki mobil ilovada Bank taqdim etadigan xizmatlardan foydalanib "Sotuvchi"lar tomonidan joylashtirilgan mahsulotlarga buyurtma berish orqali "Mijoz" ushbu oferta shartnomasining barcha shartlariga o'z roziligini bildiradi.

1.2. "Bank" "Mijoz"ni hamda "Sotuvchi"larni oldindan ogohlantirmagan holda oferta shartnomasining shartlariga o'zgartirish kiritish huquqiga va bu to'g'risida Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilovada ma'lumot e'lon qilinadi.

1.3. "Taraflar" uchun mazkur oferta shartnomasida belgilangan majburiyatlarning amal qilishi ular ushbu shartnoma doirasidagi majburiyatlarini to'liq bajarganlaridan so'ng tugagan hisoblanadi.

1.4. "Bank" Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi yoki mobil ilovaga taqdim etilishi mumkin bo'lgan barcha xizmat turlari haqida ma'lumotlarni joylaydi.

1.5. "Mijoz" "Bank"ning hamkori sanalmish "Sotuvchi"lar taklif qilayotgan mahsulotlarni harid qilish uchun "Bank" taqdim etayotgan xizmat turlaridan birini tanlaydi.

1.6. "Mijoz" Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi yoki mobil ilova orqali "Bank" xizmat turlaridan foydalanish uchun avvalambor "Sotuvchi" taqdim etayotgan mahsulotlardan birini tanlaydi va shundan so'ng "Bank" xizmat turlaridan o'ziga ma'qulini tanlab, ushbu xizmatdan foydalanish uchun ariza qoldiradi va talab etiladigan barcha ma'lumotlarni taqdim etish majburiyatini oladi.

1.7. Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi yoki mobil ilovada "Bank" taklif etayotgan xizmat turlari to'g'risidagi ma'lumotlardan tashqari "Sotuvchilar" taklif etayotgan mahsulotlar va ularning narxlari haqida ma'lumotlar mavjud bo'ladi.

2. MAHSULOT NARXI

2.1. "Mijoz" tomonidan sotib olinayotgan har bir mahsulotning narxi Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilovada ko'rsatilgan.

2.2. Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilovaga joylashtirilgan har bir mahsulotning narxi alohida "Sotuvchi"lar tomonidan mustaqil belgilanadi.

2.3. Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilovaga joylashtirilgan har bir mahsulotning narxi O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi-So'mda ko'rsatiladi.

2.4. "Sotuvchi"lar tomonidan Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilovaga joylashtirilgan har bir mahsulotning narxini "Sotuvchi" bir tomonlama taraflarni ogohlantirmasdan Tovar pozitsiyasi uchun narxlarni o'zgartirish huquqiga ega.

2.5. Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilova "Mijoz" tomonidan buyurtma berilgan mahsulotlarning narxini "Sotuvchi" tomonidan "Mijoz"ning manfaatiga zid keladigan holatlar bo'yicha (ya'ni mahsulotlarning narxini oshirish pozitsiyasi bo'yicha) o'zgartirish huquqi cheklanadi.

3. SHARTNOMANI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI.

3.1. Mazkur shartnoma Ommaviy oferta shartnomasi hisoblanib, Taraflar uchun uning shartlarini muhokamalarsiz qabul qilinishini belgilaydi. Shartnoma "Mijoz" tomonidan Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi yoki mobil ilova orqali buyurtma berilib tasdiqlanganidan so'ng kuchga kirgan hisoblanadi.

3.3. Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilovadagi grafik tasvir-namunalari ko'rinishida taqdim etilgan mahsulotlar Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilova yaratuvchisining xususiy mulki hisoblanadi.

3.4. "Mijoz" so'roviga asosan "Bank" Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilovadagi taklif etilgan xizmat turlari bo'yicha, "Sotuvchi"lar esa o'z mahsulotlari to'g'risidagi (telefon yoki elektron pochta orqali) "Mijoz" uchun zaruriy va subektiv nigohda yetarli hisoblangan malumotni mahsulot xaridiga doir qaror qabul qilinishi uchun taqdim etishga majburdirlar.

3.5. "Mijoz"lar taklif etilgan Bank xizmatlaridan birini rasmiylashtirish uchun ariza qoldirishi mazkur shartnoma talablariga e'tirozsiz ravishda roziligini anglatadi.

3.6. Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilova orqali "Bank" taqdim etgan muayyan xizmat turidan foydalanib mahsulotni sotib olgan "Mijoz" mazkur shartnoma doirasida hamda shartlari asosida nafaqat "Bank" bilan, balki "Sotuvchi" bilan ham savdo munosabatlariga kirishgan shaxs sifatida baholanadi.

4. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

4.1. "Mijoz"ning majburiyatlari:

4.1.1 "Mijoz" shartnomani tasdiqlash oldidan undagi ma'lumotlar va shartlar, "Bank" taklif etayotgan xizmat turlarining shartlari, tabiati, yuzaga keladigan huquq va majburiyatlari bilan, qolaversa "Sotuvchi" Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilovaga joylashtirilgan mahsulotlarning narxlari va u bilan bog'liq ma'lumotlar bilan to'liq tanishib chiqishi lozim.

4.1.2 "Sotuvchi" o'z majburiyatlarini bajarishi uchun "Mijoz" uni mijoz sifatida aniqlashga yordam beradigan va mahsulotni yetkazib berish xizmatidan foydalanilgan taqdirda buning uchun kerakli barcha ma'lumotlarni "Sotuvchi"ga taqdim etishi lozim bo'ladi.

4.1.3 "Mijoz" Oferta shartnomasi doirasida "Bank" xizmatidan foydalanish orqali buyurtma berilgan mahsulot va uni yetkazib berish xizmati uchun to'lovni amalga oshirishi lozim (Agar ushbu turdagi to'lovlar "Sotuvchi" tomonidan belgilangan bo'lsa).

4.1.4 "Sotuvchi" hamda "Mijoz" o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli bahsli holatlarni oldini olish maqsadida buyurtmani rasmiylashtirish vaqtida "Sotuvchi" tomonidan Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilovaga joylashtirilgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan batafsil tanishib chiqishi lozim.

4.2. "Sotuvchi"ning majburiyatlari:

4.2.1 "Sotuvchi" tomonidan Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilovaga joylashtirilgan mahsulotlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar kiritishi shart.

4.2.2 "Sotuvchi" tomonidan Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasiga joylashtirilgan mahsulotlar to'g'risida kiritilgan ma'lumotlar va ularning aniqligi va to'g'riligi uchun javobgar hisoblanadi.

4.2.3 "Mijoz" tomonidan tanlangan va buyurtma berilgan tovarni "Sotuvchi" tomonidan 3 (uch) bank ish kuni davomida yetkazib berilishi ta'minlanadi.

4.2.3 "Sotuvchi" tomonidan yetkazilgan mahsulot u tomonidan tavsiflagandek sifatli bo'lmasa yoki boshqa ma'lumotlarga nomutanosib bo'lganligini "Mijoz" tomonidan isbotlangan taqdirda, qaytarib olingan tovar uchun to'lovlar naqd pulda yoki "Mijoz"ning boshqa hisob raqamlariga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi va to'lov bir bank ish kunidan kechiktirmasdan "Mijoz"ning olgan qarzni so'ndirish uchun yo'naltiriladi.

4.3. "Bank"ning majburiyatlari:

4.3.1 "Mijoz" tomonidan Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilovaga joylashtirilgan mahsulotlar xaridi jarayonida ushbu mahsulotlarni o'zining ehtiyojidan kelib chiqib qarz tartibida olish istagi bildirilganida uning qarz olish talabini "Mijoz"ning to'lov qobilyatidan kelib chiqib qarz ajratish.

4.4. "Mijoz"ning huquqlari:

4.4.1 Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilovaga joylashtirilgan mahsulotlarni xarid qilish, mahsulotlarning tavsifi bo'yicha "Sotuvchi"dan qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olish.

4.4.2 Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilovada xarid qilingan mahsulotlarni "Sotuvchi" tavsiflagandek sifatli bo'lmasa yoki boshqa ma'lumotlarga nomutanosib bo'lgan taqdirda mahsulotning qadog'i ochilmagan holda "Sotuvchi"ga qayotarish.

4.5. "Sotuvchi"ning huquqlari:

4.5.1 "Mijoz"dan xarid qilingan mahsulotlarning yetkazib berilishi to'g'risida uning yetkazish manzili va boshqa aniqlik kiritilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni talab qilish.

4.6. "Bank"ning huquqlari:

4.6.1 Ajratilgan mablag'larini "Mijoz"tomonidan o'z vaqtida to'lanishini talab qilish.

4.6.2 Ajratilgan mablag'larini "Mijoz"tomonidan o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda sud organlariga murojaat qilish orqali undirish choralarini ko'rish va undirish uchun bank "Sotuvchi"dan "Mijoz" haqidagi qo'shimcha (tovar yetkazilgan joy, tovar haqidagi va h.k.) ma'lumotlar hamda ko'mak talab qilishga haqli.

5. BUYURTMANI RASMIYLASHTIRISH

5.1. Mahsulotlarga "Mijoz" tomonidan Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi orqali buyurtma beriladi.

5.2. Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilovada ro'yxatdan o'tish vaqtida Mijoz quyidagi ma'lumotlarni taqdim qilishi lozim.

5.2.1 Mijozning familiyasi, ismi, otasining ismi;

5.2.2 Tovar yetkazib beriladigan manzil;

5.2.3 Elektron pochta manzili;

5.2.4 Bog'lanish uchun telefon raqami.

5.3 "Mijoz" Elektron xizmat ko'rsatish maydonchasi va mobil ilova orqali mazkur oferta shartnomasini tasdiqlash orqali mahsulot uchun buyurtmani rasmiylashtirgan bo'lsa

“Sotuvchi” mahsulotni yetkazib berish bilan yoki uning boshqa jihatlari bilan bog‘liq ma’lumotlarni “Mijoz”dan so‘rash huquqiga yega.

6. YAKUNIY QOIDALAR

6.1 Mazkur oferta shartnomasi “Mijoz” Elektron xizmat ko‘rsatish maydonchasi va mobil ilova orqali mahsulot xarid qilish to‘g‘risida arizani tasdiqlaganidan so‘ng qonuniy kuchga kiradi.

6.2 Taraflar ushbu shartnoma shartlari doirasida bir birlarining majburiyatlari uchun javobgar yemas.